

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA‘SIRI****Abdumalikova Busalima Abduvali qizi***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Menejment” fakulteti talabasi***Ruzibayeva Karima Shavkat qizi***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Buxgalteriya hisobi” fakulteti talabasi***ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi o‘rni va jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta‘siri tahlil qilingan. Bugungi kunda turizm nafaqat sayohat qilish vositasi, balki mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta‘minlovchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shuningdek, turizmning davlat byudjetiga daromad keltirishi, yangi ish o‘rinlarini yaratishilishi, infratuzilmasini rivojlanishi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati yoritilgan. O‘zbekistonda turizm sohasini milliy iqtisodiyotimizga qo‘shgan hissasi hududlarda turizm xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, turistik resurslardan maqsadli foydalanish, turizm xizmatlarini raqamlashtirish, turizm xizmatlari bozorini tartibga solishning ilmiy-uslubiy yondoshuvlari to‘g‘risida fikr va mulohazalar keltirilgan. Shu bilan birga, sohada uchrayotgan ayrim muammolar, jumladan xizmat sifati, infratuzilma sining yetarli darajada rivojlanmaganligi va marketing masalalari ham ko‘rib chiqilgan hamda ularni bartarafetish uchun yo‘llari taklif etilgan. Turizm sohasini izchil rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari mavjud.*

**Kalit so‘zlar:** *Turizmni rivojlantirish, iqtisodiy ahamiyat, infratuzilma rivoji, xorijiy investitsiyalar, milliy iqtisodiyot, ekoturizm, daromad manbalari, ichki turizm, xalqaro turizm, ish o‘rinlari.*

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проанализировано развитие сферы туризма в Республике Узбекистан, её роль в экономике и влияние на развитие общества. На сегодняшний день туризм рассматривается не только как средство путешествия, но и как один из важных факторов обеспечения экономического роста страны. Также отражено значение туризма в пополнении государственного бюджета, создании новых рабочих мест, развитии инфраструктуры и привлечении иностранных инвестиций. Освещён вклад туристической отрасли в национальную экономику, подняты вопросы повышения экономической эффективности развития туристических услуг в регионах,*

*целевого использования туристических ресурсов, цифровизации туристических услуг, а также научно-методологических подходов к регулированию рынка туристических услуг. Кроме того, рассматриваются существующие проблемы в отрасли, такие как уровень качества предоставляемых услуг, недостаточное развитие инфраструктуры и вопросы маркетинга, а также предлагаются пути их решения. Сделан вывод о том, что последовательное развитие сферы туризма открывает возможности для укрепления экономической стабильности страны и повышения её конкурентоспособности на международной арене.*

**Ключевые слова:** Развитие туризма, экономическое значение, развитие инфраструктуры, иностранные инвестиции, национальная экономика, экотуризм, источники доходов, внутренний туризм, международный туризм, рабочие места.

#### **ABSTRACT**

*This article analyzes the development of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan, its role in the economy, and its impact on the progress of society. Today, tourism is regarded not only as a means of travel but also as one of the key factors ensuring the country's economic growth. The article also highlights the significance of tourism in generating revenue for the state budget, creating new jobs, developing infrastructure, and attracting foreign investment. It discusses the contribution of the tourism sector to the national economy, increasing the economic efficiency of tourism services in the regions, targeted utilization of tourism resources, digitalization of tourism services, and scientific-methodological approaches to regulating the tourism services market. In addition, it addresses some existing issues in the sector, including the quality of services, insufficiently developed infrastructure, and marketing challenges, and proposes solutions to address these problems. Consistent development of the tourism sector offers opportunities to strengthen the country's economic stability and increase its competitiveness in the international arena.*

**Keywords:** Tourism development, economic significance, infrastructure development, foreign investments, national economy, ecotourism, sources of income, domestic tourism, international tourism, employment opportunities.

#### **KIRISH**

Bugungi globalashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston kabi boy tarixiy-madaniy merosga ega mamlakatlarda turizm nafaqat iqtisodiy o‘shish omili, balki milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro, Xiva, Samarqand kabi shaharlarda yuzlab yillik tarixga ega yodgorliklar mavjud. Shu bilan birga, tog‘li hududlardagi ekoturizm, qishloq xo‘jaligiga asoslangan agro-turizm va ziyorat turizmi

kabi yo‘nalishlar ham izchil rivojlanmoqda. Davlat tomonidan turizmga oid qonunchilik takomillashtirilmoqda, soddalashtirilgan viza tartiblari joriy etilmoqda, raqamli xizmatlar tarmog‘i kengaymoqda. Eng muhimi, turizm sohasi barqaror rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. U ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan ham salmoqli o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bu sohaga bo‘lgan e‘tibor va yondashuv har tomonlama puxta rejalashtirilgan, strategik yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston bu yo‘nalishda faol harakat qilmoqda, yaqin yillarda mamlakat Markaziy Osiyoning eng ilg‘or turizm markazlaridan biriga aylanishi kutilmoqda. So‘nggi yillarda davlat tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy sayyohlar oqimini oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Turizmning rivojlanishi yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududlar iqtisodiy faolligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish hamda valyuta tushumlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu soha transport, savdo, qurilish va boshqa ko‘plab tarmoqlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotning kompleks rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Turizm sohasi iqtisodiy samaradorligining oshishi turizm xizmatlarining har tomonlama rivojlanganligida ko‘rinadi, ya‘ni bunga turizmning mamlakatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar bilan parallel ravishda va o‘zaro aloqada rivojlanishi natijasida erishiladi. Turizm sohasi mahalliy aholi hamda xorijiy fuqarolar boradigan mintaqalarning tarixi, u yerdagi tarixiy arxitektura obyektlarini, mahalliy aholining urf-odatlarini, an‘analari, marosimlari bo‘yicha kishilar bilimlarini oshirish, ziyoratgoh joylarni ziyorat qilish, sog‘lomlashtirish xizmatlaridan foydalanish bilan bir qatorda shu mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotiga bevosita valyutalar oqimini olib kelish, mahalliy aholining yashash sharoitini yaxshilash va ularni ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashadi. Ayni paytda O‘zbekistonda ana shunday infratuzilmaviy yondashuvlar keng qamrovli dasturlar orqali yo‘lga qo‘yilgan. Yirik shaharlardagi aeroportlar yangilanmoqda, turizm markazlariga olib boruvchi yo‘llar rekonstruksiya qilinmoqda, shuningdek, yangi transport tarmoqlari ishga tushirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi [1], 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmonlari [2], 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori [3] hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash ham asosiy vazifalardan biri va bu kabi qonun xujjatlari turizmni rivojlanishi uchun juda katta xizmat qiladi. Bu borada olib borilayotgan ishlar soha rivojida

ulkan hissa qo'shmoqda hamda O'zbekistonda turizmni rivojlanish bosqichlarini yuqorilashiga turtki bo'lmoqda.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda e'tiborni tortayotgan yo'nalishlardan biri bu – barqaror turizmning iqtisodiy samaradorligi. Mazkur yo'nalishda zamonaviy tahlillar ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni uyg'un holda ko'rib chiqilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning tutgan o'rni bo'yicha olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar sezilarli darajada faollashgan. Jumladan, Mahmudov M., Norqulov A., va Umarov J. kabi olimlarning ishlanmalarida turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, mintaqaviy bandlik darajasi va investitsiya oqimlariga ta'siri atroflicha o'rganilgan. Undan tashqari, mamlakatimizning yetakchi olimlari A.M. Abduvoxidov hududiy turizmni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshishiga asosiy sabablardan biri bo'lishi haqida "Turizm rivojlanishining tahlili va prognozi" nomli maqolasida turizm sohasini rivojlanishi bir qancha iqtisodiy-ijtimoiy omillar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab "Barcha sohalarda bo'lgani kabi turizm ham hal qilinishi kerak bo'lgan qator muammo va kamchiliklar mavjudligi" to'g'risida alohida keltirib o'tgan. Logistika, infratuzilma, mehmonxona va tezyurar poyezdlarda joy yetishmasligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, turizm tarmog'i kadrlari salohiyatini oshirish bilan bog'liq qator muammolar yechimi izlanmoqda" ekanini aytib o'tgan (Abduvoxidov A.M. 2019). I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov va G.R.Tursunovanning tadqiqotlari mamlakatimizda turizm sohasini va industriyasini rivojlantirish, turistik-rekreasion xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan bo'lib, ularda turizmda rekreasion xizmatlarning shakllanishi masalalariga atroflicha e'tibor qaratilgan (I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov va G.R.Tursunova 2014). Mazkur tadqiqotlarda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va uning infratuzilmasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) va Jahon Banki tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar ham turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirishda muhim hissasini qo'shgan bir qator jahon olimlar va tadqiqotchilar ham mavjud. Jumladan, Richard Florida, Greg Richards, Melanie Smith (ijodiy sinf va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, turizmning shaharlar va mintaqalar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan). O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, Statistika agentligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar ham real sektordagi o'zgarishlarni yoritishda asosiy manba hisoblanadi. John Tribe — turizm sohasida yetakchi tadqiqotchilardan biri bo'lib, uning asarlari turizm ta'limi va amaliyoti o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. "The Business of Tourism" - Turizm sohasidagi ta'lim va amaliyot

o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi(2005). "Understanding the Tourism Industry- Turizm sanoatini tushunishga qaratilgan asar. U turizmni rejalashtirish va boshqarish masalalariga e'tibor qaratadi, shuningdek, turizm siyosati va strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. David Airey — turizm tadqiqotlari sohasida keng ko'lamli tajribaga ega bo'lgan olim. U turizmni rejalashtirish va boshqarish bo'yicha ko'plab maqolalar yozgan. Melanie Smith — madaniy turizm va barqaror rivojlanish sohasidagi tadqiqotlari bilan tanilgan olim. U turizmning ijtimoiy va madaniy ta'sirlarini o'rganadi va mahalliy madaniyatni saqlashda turizmning rolini tahlil qiladi. Greg Richards, shuningdek, madaniy tadbirlarning turizm rivojlanishidagi ahamiyatini tahlil qilib, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni taklif etadi[4]. Uning ishlari, turizm sohasida innovatsion yondashuvlar va amaliyotlar yaratishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar, turizm sohasining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va barqaror rivojlanish uchun zaruriy strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi.

#### **TADQIQOT METODOLIGIYASI**

Mazkur ishda O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi va uning milliy iqtisodiyotga ta'sirini har tomonlama o'rganish maqsadida tizimli va kompleks yondashuvdan foydalanildi. Ish davomida turli metodlar uyg'un holda qo'llanilib, mavzuni chuqur va asosli tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi. Avvalo, nazariy tahlil usuli asosida turizm iqtisodiyotiga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar, xalqaro va mahalliy tadqiqotchilarning qarashlari o'rganildi. Bu orqali turizmning iqtisodiy mohiyati, uning tarkibiy elementlari, rivojlanish tendensiyalari hamda milliy iqtisodiyotdagi o'rni konseptual jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarga tayanilgan holda empirik tahlil amalga oshirildi. Unda turizm sohasi bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlar — xorijiy va mahalliy sayyohlar soni, turistik xizmatlar hajmi, valyuta tushumlari hamda bandlik darajasiga ta'siri o'rganildi. "O'zbekiston–2030" strategik rivojlanish dasturidagi turizmga oid bo'limlar asos qilib olindi. Tahlil jarayonida sifat va miqdoriy usullar uyg'unlashtirildi. Ya'ni, turizmning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri sonli raqamlar orqali ochib berilgan bo'lsa, uning ijtimoiy va madaniy jihatlarini sifat tahlillari asosida yoritildi. Shu bilan birga, mintaqaviy farqlarga e'tibor qaratilib, tarixiy shaharlar va chekka hududlarda turizmning turlicha aks etishi kontekstual yondashuv orqali tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar orqali sohaning iqtisodiy samaradorligi va uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissi baholandi. Taqqoslash va dinamik tahlil usullari yordamida turizm rivojining vaqt bo'yicha o'zgarishlari tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali sohadagi ijobiy siljishlar, o'sish sur'atlari va mavjud tendensiyalar aniqlandi. Bundan tashqari, tizimli tahlil usuli asosida turizm sohasining boshqa iqtisodiy tarmoqlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqildi. Jumladan, transport, savdo, mehmonxona xizmati va infratuzilma rivoji bilan bog'liq


jihatlarni kompleks tarzda baholandi. Yakuniy bosqichda olingan natijalar umumlashtirilib, mantiqiy xulosalar chiqarildi hamda sohani yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**


Tadqiqot natijalari O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini ochib berdi. Birinchidan, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o'sayotgan bo'lib, bu sohaning mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. 2023-yilda 5,2 million xorijiy turistning tashrifi milliy turizm sektorining jozibadorligini ko'rsatib, xizmatlar eksportidan valyuta tushumlarini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi. Turizm sohasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi, xizmat ko'rsatish, mehmonxona va transport infratuzilmasining rivojlanishiga hissa qo'shdi. Mehmonxonalar sonining ko'payishi va transport infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratdi. Xususan, tezyurar poyezdlar, xalqaro aeroportlarning modernizatsiya qilinishi va mehmonxonalar tarmog'ining kengayishi xorijiy turistlar oqimini oshirdi. O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning turli jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va strategik geografik joylashuvi bu sohani milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosining 20%ga o'sishi turizmning mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini tasdiqlaydi. Xorijiy turistlarning o'rtacha (600-800) AQSh dollari miqdorida xarajat qilishi turizmni daromadli soha sifatida belgilaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasidagi o'sish O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlashiga, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va investitsiya dasturlari natijalari bu sohani iqtisodiyotning barqaror o'sish manbaiga aylantirish imkonini bermoqda. Quyidagi jadvalni misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin.

**1-jadval. Turizm sohasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari va uning milliy iqtisodiyotga ta‘siri [5].**

**Xorijiy turistlar oqimi (million kishi).**









Bu 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy turistlar oqimining 2019–2024-yillardagi real ko‘rsatkichlari va 2025–2026-yillar uchun belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. 2020-yilda global pandemiya cheklovlari natijasida turistlar oqimi eng quyi nuqtaga (taxminan 1.5–2 mln kishi) tushgan bo‘lsa-da, 2021-yildan boshlab barqaror o‘shish tendensiyasi boshlangan. 2022-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda turistlar soni deyarli ikki barobarga oshib, 2024-yil yakuniga ko‘ra qariyb 9 million kishiga yetgan. Strategik rejalashtirishga ko‘ra, 2025-yilda ko‘rsatkichni 12 millionga, 2026-yilda esa 16 million nafarga yetkazish maqsad qilingan. Demak, bu 2019-yildagi pandemiyadan oldingi ko‘rsatkichga nisbatan qariyb 4 barobar o‘shishni anglatadi. Ushbu dinamika turizm sektorining milliy iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotganini va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi barqaror o‘shish orqali yuksalayotganini ko‘rsatadi.

**2-jadval. Turistik xizmatlar eksporti (\$mlrd).**

Ushbu grafikda O‘zbekistonning turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromadlari va ularning o‘rta sur‘atlari tahlil qilingan. Ko‘rsatkichlar AQSh dollarida (milliard hisobida) berilgan. 2019-yilda turistik xizmatlar eksporti taxminan 1.3 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda pandemiya oqibatida bu ko‘rsatkich keskin kamayib, o‘zining eng quyi nuqtasiga (0.5 mlrd dollardan kam) tushib qolgan. 2021-yildan boshlab turizm tushumlarida sezilarli sakrash kuzatildi. Ayniqsa, 2022-yildagi 1.6 mlrd dollarlik ko‘rsatkich 2023-yilga kelib qariyb ikki barobarga oshdi va 3.5 mlrd dollarga yetdi. 2024-yil yakuni bilan eksport hajmi qariyb 4 mlrd dollardan oshgani sohadagi samaradorlikning yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Maqsadli ko‘rsatkichlarga ko‘ra, 2025-yilda xizmatlar eksportini 5 mlrd dollarga, 2026-yil yakuniga kelib esa rekord darajadagi 6.5 mlrd dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Eksport hajmining bunday jadal sur‘atlarda o‘sishi nafaqat turistlar sonining ortishi, balki turizm mahsulotlari sifatining yaxshilanishi va xorijiy sayyohlarning mamlakatda qolish muddati uzayganligi bilan ham izohlanadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat to‘lov balansini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**3-jadval. 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar statistikasi [6].**

№	Mamlakat	Turistlar soni	Ulushi (%)	Kumulyativ ulush (%)
1	 Qirg'iziston	3 300 000	28.2%	28.2%
2	 Tojikiston	2 700 000	23.1%	51.3%
3	 Qozog'iston	2 700 000	23.1%	74.4%
4	 Rossiya	984 000	8.4%	82.8%
5	 Afg'oniston	476 000	4.1%	86.8%
6	 Turkmaniston	370 000	3.2%	90.0%
7	Xitoy	279 000	2.4%	92.4%
8	Turkiya	175 000	1.5%	93.9%
9	Hindiston	81 000	0.7%	94.6%
10	Koreya Respublikasi	46 000	0.4%	95.0%
	<b>JAMI</b>	<b>11 700 000</b>	<b>100.0%</b>	<b>100.0%</b>

Turizm samaradorligi deganda quyidagilardan iqtisodiy natija olish tushuniladi: turizm tashkilotlari, turistik xizmatlar, turistik korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoni. Turizmning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnatning umumiy samaradorligining ajralmas elementidir. Mikrodarajada turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi turizm xizmatlarini amalga oshirishning miqdoriy hajmini va ularning sifat tomonlarini aks ettiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi: turistik oqim hajmi, turizm xarajatlari miqdori, moddiy-texnika bazasining holati va rivojlanishi, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ko‘rsatkichlari hamda xalqaro turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlaridan iborat. Statistik tahlilga ko‘ra, O‘zbekistonda 2025-yilda jami 11.7 million xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan sezilarli darajada o‘shishni ifodalaydi. Qo‘shni davlatlar hissasi: Qo‘shni davlatlar (Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Turkmaniston) jami 9,546,000 nafar bilan tashriflarning taxminan 82% ini tashkil qiladi. Bu

O‘zbekiston turizmidagi asosiy oqimni aks ettiradi. Boshqa mamlakatlar: Qo‘shni davlatlardan tashqari kelgan turistlar (~2,154,000 nafar) global turizm bozorida O‘zbekistonning imkoniyatlarini ko‘rsatadi va boshqa davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, 2025-yilda O‘zbekiston turizmi jadal sur‘atlarda o‘sdi, qo‘shni davlatlar asosiy oqimni tashkil etdi, shuningdek boshqa mamlakatlar bilan aloqalarni kengaytirish orqali turizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini oshirdi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishini ta‘minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy turistlar oqimini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Turizmning rivojlanishi nafaqat valyuta tushumlarini ko‘paytiradi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, transport, savdo, mehmonxona va xizmat ko‘rsatish kabi boshqa tarmoqlar bilan uzviy bog‘liqligi sababli turizm milliy iqtisodiyotning kompleks rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq, sohada hali ham infratuzilma yetishmovchiligi, xizmatlar sifati pastligi va marketing strategiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish kelgusidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, turizm sohasining samaradorligini oshirish va uning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish uchun qator amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. O‘zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zamonaviy talablar asosida infratuzilmani takomillashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, transport tizimi, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini kengaytirish orqali turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida turizm sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish hamda xalqaro standartlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali turizm xizmatlarini yanada qulay va samarali qilish mumkin. Onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar va zamonaviy axborot platformalari turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Turizm sohasida mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish ham dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, ekoturizm, ziyorat turizmi, gastronomik va madaniy turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali mamlakatning turistik jozibadorligini yanada oshirish mumkin.

Shuningdek, xalqaro miqyosda marketing va reklama faoliyatini kuchaytirish, O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini keng targ‘ib qilish muhim hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratish, xususan, xorijiy va mahalliy investorlarni rag‘batlantirish orqali yangi turizm loyihalarini amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, turizmni faqat yirik shaharlarda emas, balki hududlarda ham rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish va hududiy iqtisodiyotni faollashtirishga erishish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora -tadbirlar to'g'risida"gi qonun.
2. 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmonlari. <http://lex.uz//ru/docs/-4143188>
3. 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida "gi qarori
4. Richards, G. (2011). Creativity and tourism: The state of the art.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (yillik to‘plam). Toshkent.
6. Uzbekistan National Statistics Committee. (2025). Tourism statistics data.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016–2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
8. World Tourism Organization (UNWTO) – xalqaro turizm bo‘yicha yillik hisobotlar.
9. Buxoro davlat universiteti tomonidan yozilgan “Turizmni rivojlantirish va iqtisodiyotga ta’siri” nomli maqolasidan. <https://uniwork.buxdu.uz>.
10. Эргашева, А. (2023). Hunarmandchilik sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 35(35).
11. Kun.uz. (2026). Foreign tourist arrivals to Uzbekistan.
12. UzDaily. (2026). Uzbekistan tourism report 2025.
13. Manba: —Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari, Samarqand-2014 .
14. Eshtaev A.A., Norchaev A.N., Ruziev S.S. O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yo‘llari. T.: TDIU, 2007.
15. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari.
16. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. “Milliy iqtisodiyot” darsligi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston-2030” strategik rivojlanish dasturi. Toshkent-2023.

18. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

19. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz).